

**QASHQADARYO VILOYATIDA 2018 YIL YANVAR-FEVRAL OYLARIDA
XIZMATLAR**

SOHASINI RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI

2018 yil yanvar-fevral oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 983,5 mlrd. so'mni tashkil qildi, shu jumladan qishloq joylarida 236,2 mlrd. so'm yoki umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 24,0 % ni tashkil qildi. 2017 yil yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish 104,5 % ni tashkil etdi.


**2018 yilning yanvar-fevralda bozor xizmatlari ishlab chiqarishning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**

Xizmatlar nomi	mlrd. so'm	2017 yil yanvar-fevralga nisbatan o'sish sur'ati, % da	yakunga nisbatan ulushi, % da
Jami xizmatlar	983,5	104,5	100,0
<i>shu jumladan xizmat turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmati	64,2	113,9	6,5
moliyaviy xizmatlar	107,4	121,6	10,9
transport xizmatlari	226,5	100,7	23,0
<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmatlari	219,3	101,2	22,2
yashash va ovqatlanish xizmatlari	30,1	101,3	3,1
savdo xizmatlari	337,4	100,4	34,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	31,7	101,2	3,2
ta'lim sohasidagi xizmatlar	26,3	120,0	2,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	9,5	102,6	0,9
ijara va prokat xizmatlari	28,7	111,7	2,9
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	36,2	101,0	3,7
boshqa shaxsiy xizmatlar	38,8	100,8	3,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar	10,0	101,1	1,0
boshqa turdagi xizmatlar	36,7	110,7	3,7

2018 yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan jami xizmatlarning 2017 yil yanvar-fevralga nisbatan oʻsish surʼati moliyaviy xizmatlarda (121,6 %), taʼlim sohasidagi xizmatlarda (120,0%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (113,9 %), sogʻliqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (102,6 %) yuqori boʻldi.

(1-rasm)

2018 yil yanvar-fevralda ishlab chiqarilgan bozor xizmatlarining iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha taqsimlanishi



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 34,3 %), transport xizmatlari (23,0 %), moliyaviy xizmatlar (10,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,5 %) hissasiga toʻgʻri keldi. (1-rasm)

Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi boʻlimi
Tel. 75 221-44-32

